JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 16 - noyabr 238-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo'jalik avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, sun`iy notekisliklar o'rnatish to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimyati to'g'risida"gi Qonuni 6, 25-moddalari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3127-son qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari" (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Jizzax viloyati IIB JXX YHXB yo`l infatuzilmasini nazorat qilish bo`limining 754-sonli yozma ko`rsatmasi va Forish tumani Ichki ishlar bo`limining 2023-yil 10-noyabrdagi 42/3431-sonli xati ma`lumot va ijro uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Forish tumani Amir Temur, Bog`don, Mustaqillik, Oqtom, O`zbekiston, Xonbandi, Oybek, Uchma, Nurak, Ilonli MFYlar hududidagi ichki yo`llarga ilovaga muvofiq sun`iy yo`l notekisligi va yo`l belgilari o`rnatishga ruxsat etilsin.

3. Tuman "Obodonlashtirish boshqarmasi" rahbari (X.Jo`raqulov) Amir

Temur, Bog`don, Mustaqillik, Oqtom, O`zbekiston, Xonbandi, Oybek, Uchma, Nurak, Ilonli MFYlar hududidagi ichki yo`llarga ilovaga muvofiq sun`iy yo`l notekisligi va yo`l belgilari o`rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo`limi boshlig`i Q.Nazarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2023-yil 16-noyabrdagi
238-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani hududidagi ichki yo`llarga va ijtimoiy soxa ob`ektlariga sun`iy notekislik va yo`l belgisi o`rnatish dislokatsiyasi

№	MFY nomi	Ko'cha nomi	Ob`ekt nomi	Joylashtirish Joylari	Yo`l belgisi nomi
1	Amir Temur	Ko`xnabozor qishlog`i	5-sonli maktab	PK 03+35 PK 03+353	5.16.2. Piyodalar o'tish joyi 1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
2	Bog`don MFY	Bog`don ko`chasi	Xadochabonu DMTT	PK 15+90 PK 15+94	5.16.2. Piyodalar o'tish joyi 1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
3	Amir Temur MFY	Past ko`cha qishlog`i	55-sonli maktab	PK 05+23 PK 05+20	5.16.2. Piyodalar o'tish joyi 1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
4	Mustaqillik MFY	Oloqob qishlog`i	73-sonli maktab	PK 06+41	1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
5	Mustaqillik MFY	Oloqob qishlog`i	13-sonli DMTT	PK 04+85	1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
6	Oqtom MFY	Oqtom qishlog`i	Mahalla ichki yo`llari	PK 1+70 PK 3+35 PK 4+89	1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
7	O`zbekiston MFy	Baxt ko`chasi	Mahalla ichki yo`llari	PK 02+10 PK 03+65 PK 05+70	1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
8	Xonbandi MFY	Al Buxoriy ko`chasi	Mahalla ichki yo`llari	PK 01+10	1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
9	Xonbandi MFY	Tibbiyot ko`chasi	Mahalla ichki yo`llari	PK 02+35	1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
10	Xonbandi MFY	Usmon Nosir ko`chasi	Mahalla ichki yo`llari	PK 01+10	1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
11	Oybek MFY	Nurobod ko`chasi	Mahalla ichki yo`llari	PK 01+35 PK 03+05 PK 05+10	1.11.2 Xavfli burilish 1.31. Sun'iy yo'l notekisligi
12	Uchma MFY	Quyi Uchma qilshlog`i	Mahalla ichki yo`llari	PK 19+76 PK 28+65 PK 31+16	1.11.2 Xavfli burilish
13	Nurak MFY	Qoraxon qishlog`i	Oilaviy nodavlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	PK 72+36	5.16.2. Piyodalar o'tish joyi 1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi
14	Ilonli MFY	Ilonchi qishlog`i	43-sonli maktab	PK 98+37	5.16.2. Piyodalar o'tish joyi 1.31. Sun'iy notekisliklar va yo'l belgisi